

Mazkur o'quv qo'llanmada geografiya fanining amaliy ahamiyati, shuningdek, XXI asrda tabiat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarning bugungi ahvoli hamda mazkur jarayonda kelib chiqayotgan turli salbiy holatlar xususida batafsil ma'lumotlar beriladi.

O'quv qo'llanma ayni shu jihatlariga ko'ra ahamiyatlidir.

Taqrizchilar:

A.MAMATOV, g.f.n.,
Qarshi Davlat Universiteti dotsenti

L.N. ERDONOV, g.f.n.

Ra'no ALLAYEVA,
Qarshi axborot texnologiyalari kolleji
geografiya fani o'qituvchisi

Olim RUSTAMOV,
Maymanq MXK kolleji oliy toifali
geografiya fani o'qituvchisi

21576



ISBN 978-9943-08-301-1

© A. Hayitov, M. Zulfiqorov «Amaliy geografiya». «Yangi asr avlodi»,
2008-yil

KIRISH

Akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”, “Ta’lim to’g’risida”gi Qonun talablaridan kelib chiqqan holda geografiyadan olingan bilimlarning nazariy asosini kuchaytirish va uni amalda qo’llay olish maqsadida ushbu kurs o’qitilmoqda.

XXI asrga kelib tabiat va jamiyat o’rtasidagi munosabatlarning tobora jiddiylashuvi va uning oqibatida kelib chiqayotgan tabiiy, iqtisodiy-ijtimoiy, ekologik salbiy oqibatlar bir tomondan tabiatning, ikkinchi tomondan esa insoniyatning qashshoqlashuviga sabab bo’lmoqda. Ishlab chiqaruvchi kuchlarning keng miqyosda taraqqiy etishi natijasida tabiat “aks ta’sirga” duch kelmoqda. Insoniyatning tabiatga ta’siri uning qonunlariga e’tibor bermasligi natijasida ko’pgina ko’ngilsiz hodisalar kelib chiqmoqda. Shuning oqibatida bunday hodisalarning oldini olish, tabiat ne’matlari mahsuldorligini ko’paytirib borish hozirgi kunning dolzarb muammosi bo’lib qolmoqda. Bu muammoning yechimida boshqa fanlar qatori geografiya fanining ham alohida hissasi bor.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, tabiatni geografiya fani kabi tabiiy-ijtimoiy jabhalarda o’rganadigan fanning o’zi yo’q. Bunda:

Birinchidan, geografiya tabiatning bir bo’lagini emas, balki uni bir butun, yaxlit holda o’rganadi, hodisalarni majmualari tahlil qiladi. U yer sharining sayyoraviy-hududiy, mahalliy qonun-qonuniyatlarini yaxshi biladi, ularni tushuntirib bera oladi. Geografiya fani tabiatni muhofaza qilish, ekologik muvozanatni saqlab mustahkamlash, uni boyita borish, insoniyatni har qanday xavf-xatardan saqlab qolishga qaratilgan. Uning xususiyati tabiat va jamiyat qonunlarini yaxshi bilgani va uni

amalda qo'llay olganidandir. Joylarda tabiat boyliklaridan noto'g'ri foydalanish tufayli yuzaga keladigan noxush hodisalarni bartaraf qilish, buzilgan ekologik muvozanatni qayta tiklash, tabiatning go'zalligini saqlab qolishda geografiya fanining xizmatlari katta. Fan- texnika taraqqiyoti jadallashgan hozirgi davrda insoniyat tomonidan tabiatni boshqaradigan geotizimlar yaratilishi, ya'ni konstruksiya qilinishi muhim amaliy ahamiyatga ega.

Ikkinchidan, *amaliy geografiya* amaliyotda foydalanayotgan geotizimlarning tuzilishi va taraqqiyotida asosiy qonuniyatlarni tartib-tarkibli, tadrijiy jihatdan murakkab bo'lgan tabiat majmualari holatini turli tadbirlarni qo'llash orqali yaxshilash va yangi boshqariladigan geotizimlar yaratish tabiat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlar qonuniyatlarini o'rganishga bag'ishlangan chuqur ilmiy-amaliy ishlanmalarni o'zida mujassamlashtiradi.

Amaliy geografiya yo'nalishidagi tadqiqotlarda geografik vazifalarni hal etishning umumiy masalalari ishlab chiqiladi. Nazariy modellar va qarashlar shakllantiriladi, "tabiat-texnika" va "tabiat-inson" hududiy tizimlarining qonuniy tizimlari loyihalangani, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavfli ekologik vaziyatlarning bashoratlari ishlab chiqiladi.

Amaliy geografiyaning fan sifatidagi asosiy maqsadi geografik ilmiy va amaliy bilimlarni yanada chuqurroq tahlil qilib, tabiat va jamiyatdagi mavjud hamda vujudga kelayotgan tabiiy-geografik, geoekologik, ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal qilishning konstruktiv negizlarini ilmiy asoslashdan iborat. Bu maqsadga erishish uchun o'zaro bog'liq bo'lgan quyidagi vazifalarni hal etish zarur bo'ladi:

- jamiyat va tabiat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni optimallashtirish (qulaylashtirish);
- tabiiy majmualar va ularni o'rganishning ilmiy-amaliy ahamiyatini tushuntirish;
- tabiiy-geografik jarayon va hodisalarni tadqiq qilishning amaliy ahamiyatini bilish;
- inson xo'jalik faoliyati ta'sirida tabiiy muhitning o'zgarishini aniqlash;

– tabiiy sharoit va resurslardan xo‘jalik maqsadlarida foydalanish uchun baholash;

– geografik bashoratlashtirish va uning ahamiyatini tushuntirish;

– ekologik-geografik muammolar va ular yechimining amaliy-geografik asoslarini bilish;

– ishlab chiqarishni hududiy tashkil qilish muammolari va aholi joylashuvi masalasi yechimining oqilona yo‘llarini tushuntirish;

– yirik xo‘jalik korxonalarini joylashtirish va amalga oshiriladigan muhandislik loyihalarini ekologik-geografik ekspertizasining ahamiyatini bilish;

– geosiyosat va uning nazariy asoslarini bilish;

– O‘zbekistonning geosiyosiy o‘rni va kelajagini baholay olish;

– hozirgi zamon geosiyosat muammolari, ularning sabab va omillarini bilish;

– ishlab chiqarishning texnik-iqtisodiy asoslarini tushunishi;

– tabiiy va inson resurslarini iqtisodiy-geografik nuqtai nazardan baholashni uddalashi lozim.

Amaliy geografiyaning ilmiy-amaliy ahamiyati borgan sari ortib bormoqda. Uning ilmiy yutuqlari va amaliy tajribasidan tabiiy muhitning doimo musaffo, tabiat boyliklarining sermahsul bo‘lishi yo‘lida inson hayoti uchun qulay ekologik sharoitlar yaratishda keng foydalanish asosiy vazifa bo‘lib qolmoqda.

Geografiya fani bugunga kelib oddiy tasvirlovchi, bilish uchun foydalanadigan fandan eksperimental, tajribaviy-qayta quruvchi konstruktiv yo‘nalishda rivojlanayotgan fanga aylandi. Geografiyaning vazifasi – tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni ilmiy asoslash, tabiat va jamiyatning o‘zaro munosabatlarini muntazam yaxshilab borish, hududlarning istiqboldagi rivojlanishida ilmiy jihatdan asoslangan bashoratlashtirish va bashoratlashni ishlab chiqish, bu borada esa birinchi o‘rinda inson hayoti uchun xavfli bo‘lgan hodisalarning oldini olish yo‘llarini ishlab chiqishdan iboratdir.

Amaliy geografiya fanida bilim, ko'nikma va malakalarga qo'yiladigan talablar

O'quvchilar mazkur o'quv kursini to'liq va atroflicha o'zlashtirishlari davlat ta'lim standartiga tayangan holda ma'lum nazariy va amaliy bilimlarga ega bo'lishlarini taqozo etadi. Bu borada bilish, uddalay olish va tasavvurga ega bo'lish yo'nalishida o'quvchilarning mavzularni o'zlashtirganlik darajalari nazorat qilinadi. Shuningdek, mavzularni o'rganishga tayanch bo'ladigan bilim va ko'nikmalar, atama hamda tushunchalarni to'liq o'zlashtirishlari kundalik nazoratda bo'lishi maqsadga muvofiq. Nazoratning usullari ko'p. Masalan, test o'tkazish, yozma ish, oddiy savol-javob, atama va tushunchalarga izoh berish kabi yo'llar bilan o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini tekshirish, ma'lum mavzu bo'yicha erkin referat yozish ham ularning mavzularni o'zlashtirganlik darajalarini aniqlashga imkon beradi. Bizningcha, bilimlarni o'zlashtirishda nazariy va metodologik masalalarni uddalay olish, ya'ni nazariy bilim asosida amaliy vazifani bajarish asosiy mavzudan tashqari unga yaqin bo'lgan boshqa mavzular mazmunidan tasavvurga ega bo'lish ham o'quvchilar bilimining mustahkamlashga yordam beradi.

AMALIY GEOGRAFIYADAN MAVZULARNI O'RGANISH USULLARI

1.1. Geografik ta'limotlarni o'rganish

Tabiiy geografik ta'limotlarga geografik zona, geografik landshaft va tabiiy-hududiy komplekslar kiradi.

Geografik qobiq ta'limoti geografiya fanining o'rganish obyekti bo'lgani uchun ham barcha maktab, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari geografiya o'quv predmetlarida to'la va har tomonlama ko'rib chiqilgan. «Amaliy geografiya» darsligida ham geografik qobiqning tabiiy va ijtimoiy muhitga insonning ta'siri va uning oqibatlari hamda ularni o'rganish, baholash va bashorat qilish haqida bilimlar beriladi.

Geografik qobiq ta'limoti XIX asrdan boshlab shakllana boshlagan, 1875-yilda Avstraliyalik geolog Eduard Gyuss litosfera, gidrosfera, atmosfera va biosferani ajratgan, 1910-yilda rus meteorologi P.I. Brounov tomonidan yaxlit geografik qobiq haqidagi g'oya oldinga surildi. XX asrning 30-yillarida akademik A.A.Grigorev tomonidan tabiiy geografik qobiq haqidagi ta'limot ishlab chiqildi. Keyinchalik S.V. Kalesnik tabiiy geografik qobiqni «Geografik qobiq» deb atashni taklif etdi. Mazkur ta'limotni rivojlantirishda I.P. Gerasimov, M.I. Budiko, S.V. Kalesnik, V.M. Kostyakov va boshqalarning ishlari katta ahamiyat kasb etadi.

Geografik zonallik ta'limoti eng qadimgi ta'limotlardan biri va tabiiy geografiyaning asosi hisoblanadi. Geografik zonallik ta'limoti 6-sinf darsligida to'la yoritib berilgan, so'ngra 7-sinfda O'rta Osiyo va O'zbekistondagi tabiat zonalari ko'rib chiqilgan: shamol va suv eroziyasi, o'rmonlarning kesilishi, dashtlarning o'zlashtirilishi, zonalar ichidagi landshaftlarning buzilishi va hokazolar shular jumlasidandir.

Kenglik issiqlik mintaqalarining borligi haqidagi taxminlar antik davrdayoq vujudga kelgan. Ammo u ilmiy yo'nalish sifatida faqat XVIII asrda shakllandi. XIX asrning birinchi yarmida mazkur ta'limotning rivojlanishiga A. Gumboldt katta hissa qo'shdi. U o'simlik va hayvonot dunyosining iqlimga bog'liq holda zonal tarqalishini aniqladi va balandlik mintaqalanishi qonunini kashf etdi. Zonallik ta'limotining zamonaviy konsepsiyasi V.V. Dokuchayev tomonidan ishlab chiqildi.

Keyinchalik geografik zonallik ta'limotini rivojlantirishda S.V. Kalesnik, K.K. Markov, I.P. Gerasimov, V.B. Sochava va boshqalar katta xizmat ko'rsatishdi.

Geografik landshaft ta'limoti amaliy geografiyada boshqa geografiya predmetiga nisbatan kengroq yoritilgan. 14-paragrafda «Landshaft» tushunchasi, tabiiy va antropogen landshaftlar, landshaftlarning morfologik tuzilishi (maydon, joy) haqida to'la va atroflicha bilimlar berilgan. Bundan tashqari, loyihalash ishlarida landshaft tahlilini ochib berish va landshaft xaritalarini tuzish usullari 15-paragrafda yoritilgan.

«Landshaft» tushunchasi xalqaro miqyosda keng tarqalgan. Geografik landshaft ta'limotini ishlab chiqishda akademik L.S. Bergning xizmatlari katta. So'ngra ushbu ta'limot S.V. Kalesnik, V.B. Sochava, I.P. Gerasimov, F.N. Milkov va boshqalar tomonidan rivojlantirildi.

Tabiiy hududiy komplekslar ta'limoti ham «Amaliy geografiya»da atroflicha ko'rib chiqilgan.

Darslikning 13-paragrafida tabiat kompleksi tushunchasi, tabiat komplekslarining bo'linishi chizma tarzida berilgan. Unda eng katta tabiiy-hududiy kompleks bo'lgan geografik qobiqning bo'linishi chizmasi berilgan. Geografik qobiq ikkita tirik kompleksga, ya'ni quruqlik va suvlikka bo'lingan. Quruqlik esa tabiiy geografik o'lkalar, tabiiy geografik rayonlar, geografik landshaft komplekslariga bo'lingan. Suvlik tabiiy hududiy komplekslar okeanlar, okeanlarning qismlari, dengizlar, qo'ltiqlar va bo'g'ozlarga bo'lingan.

Bundan tashqari 16 va 17-paragraflarda tabiat komplekslarining barqarorligi, uni xo'jalik ishlarida hisobga olish hamda

uning inson tomonidan o'zgartirilishi haqida ham bilim va ko'nikmalar berilgan. Barqaror va barqaror bo'lmagan hududlar O'zbekiston misolida ko'rsatilgan, tabiat komplekslarining inson tomonidan o'zgartirilishining asosiy yo'nalishlari ochib berilgan. Madaniy, buzilgan, kuchsiz, o'rtacha, kuchli, juda kuchli va juda o'zgargan landshaftlar ajratilgan.

Ijtimoiy va iqtisodiy geografik ta'limotlarga quyidagilar kiradi: iqtisodiy geografik joylashish, geografik mehnat taqsimoti, hududiy ishlab chiqarish komplekslari, xo'jalikni hududiy tashkil qilish ta'limotlari.

Iqtisodiy geografik joylashish ta'limoti. Iqtisodiy geografik joylanish barcha iqtisodiy geografik obyektlar uchun xos (davlatlar, ma'muriy birliklar, iqtisodiy rayonlar, korxonalar, manzilgozlar). Iqtisodiy geografik joylanish ta'limoti umumta'lim maktablarining 8-sinfida O'zbekiston iqtisodiy geografik joylashishini o'rganish bilan boshlanadi va 9-sinfda mamlakatlar iqtisodiy geografik o'rnini o'rganish bilan davom etadi. «Amaliy geografiya» kursida ko'proq geosiyosiy o'rin tushunchasiga e'tibor berilgan. Unda geosiyosiy o'rin tushunchasi ochib berilgan va O'zbekistonning geosiyosiy o'ri haqidagi ma'lumotlar keltirilgan. Iqtisodiy geografik joylashish ta'limotini rivojlantirishda N.N. Baranskiy N.N. Kolosovskiy, I.M. Mayergoyz ishlari katta o'rin tutadi. N.N. Baranskiy (1939) tomonidan iqtisodiy geografik ta'lim tushunchasining mazmuni va mohiyati ishlab chiqildi. I.M. Mayergoyz (1981) quyidagi iqtisodiy geografik joylashishlarini ajratgan: transport-geografik, sanoat-geografik, agrogeografik, bozor, demografik.

Mehnatning geografik ta'limoti umumta'lim maktablarining 9-sinfida ko'rib chiqilgan. «Amaliy geografiya» kursida mazkur ta'limot bo'yicha ma'lumotlar kam. Shuning uchun ushbu kursda mazkur ta'limot bo'yicha XI bobda, albatta, ma'lumotlar berilishi lozim. Chunki u iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning amaliy ahamiyatiga ega bo'lgan ta'limotlaridan biridir.

Hududiy ishlab chiqarish komplekslari ta'limoti amaliy geografiya kursida keng yoritib berilgan. Unda quyidagi

masalalar ko'rib chiqilgan: ishlab chiqarish jarayoni, ishlab chiqarishni hududiy tashkil etishning asosiy omillari, sanoat korxonasini joylashtirish va boshqarishni geografik tahlil etish, texnik joylarini asoslashda geografik tadqiqotlar natijalaridan foydalanish va h.k. Mazkur ta'limotning shakllanishi va rivojlanishiga N.N. Baranskiy, N.N. Kolosovskiy, V.M. Chetirkin katta hissa qo'shganlar.

Xo'jalikni va jamiyatni hududiy tashkil qilish ta'limoti ham amaliy geografiya kursida atroflicha yoritilgan. Xo'jalikni tashkil qilish masalalari XI bobda, jamiyatni tashkil qilish masalalari esa darslikning ikkinchi bo'limida keltirib o'tilgan. Mazkur ta'limotning shakllanishi va rivojlanishida A.E. Probst, A.T. Xrushyov, S.A. Kovalyov, B.S. Xoreyev, E.B. Alayevning ishlari katta ahamiyatga ega.

1.2. "Amaliy geografik tadqiqotlar" mavzusini o'rganishda yer kadastrining mohiyati va mazmuni

Ota-bobolarimiz azaldan yerni e'zozlab kelishgan. Yerga munosabat milliy qadriyat darajasiga ko'tarilgan va bu borada o'ziga xos an'analarimiz ham mavjud.

So'nggi paytlarda tuproqni asrab-avaylash, uning holatini yaxshilash va mo'l-ko'l rizqu ro'z manbaiga aylantirishning chinakam qonuniy asoslari yaratila boshlandi. Ularda yerga nihoyatda tejamkorlik, xo'jalik munosabatida yondashish, iqtisodiyotning barcha sohalarida yerlarni imkon qadar muhofazalash va oqilona foydalanish ruhi singdirilgan. «Yer kodeksi»ni boshqarishning negizini belgilab beruvchi hamda ulardan oqilona va foydalanishga asos soluvchi «Davlat Yer kadastrini to'g'risida»gi, «Fermer xo'jaligi to'g'risida»gi Qonunlarning qabul qilinishi dehqonlarga yer resursidan keng ravishda va yuqori samarada foydalanishga yo'l ochib beradi.

«Kadastr» so'zi lotincha so'z bo'lib, «Soliqqa tortiladigan ashyolar ro'yxati» ma'nosini anglatadi. Har bir mamlakatda kadastr rivoji o'z sharoitlari va an'analariga asoslanadi, shuning uchun jahonda aynan bir xil kadastr tizimini topish mumkin emas.

Hozirgi kunda yer kadastrı yerlarning tabiiy ahvoli, ularning xo'jalik va huquqiy holati to'g'risidagi muttasil yangilanib turuvchi ishonchli ma'lumotlar tizimi hisoblanadi. Yer kadastrining asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat: yer maydonlariga oid huquqlarni ro'yxatga olish, yerlarning maydoni va sifatini hisobga olish, yerlarni iqtisodiy jihatdan baholash.

Dehqonni yer boqadi va albatta, mehnat qiladigan dehqon uchun yerning holati, tuproqning sifati, yerning past-balandligi, chegaralari va yer maydonlarining huquqiy targ'iboti, eroziyaga va sho'rlanishga moyilligini bilish juda zarur. Yer uchastkalariga doir shu va boshqa ma'lumotlar yer kadastrining asosiy mazmunini tashkil qiladi.

Bundan tashqari, har bir yerga egalik qiluvchi va yerdan foydalanuvchi yoki uning mulkdori hisoblangan dehqon quyidagilarni bilishi shart:

- yer maydoniga oid huquqlarni, shu jumladan, yerdan foydalanish, yer maydoni chegaralarini o'rnatish, ularga amal qilish va muhofaza qilish;

- yer maydoni to'la yoki qisman olib qo'yilganda zararni qoplash;

- yerga oid da'volarni odilona hal qilish va boshqa huquqiy me'yorlarni ta'minlash.

Kadastr ma'lumotlari dehqonlarga ekin maydonlarini yerning sifati bahosiga (ball bonitetiga) qarab karta asosida joylashtirish, yer maydonlarining o'lchamlari va ularning tuzilishini, moddiy xarajatlarni, mahsulot ishlab chiqarish hajmini, o'g'itlash tizimini, almashlab ekishni rejalashtirishda katta yordam beradi. Tuproq bonitetini aniqlash yer maydoniga solinadigan soliq miqdorini, shuningdek, uning narxini baholash imkonini beradiki, bu o'z navbatida asosli miqdordagi kreditlar olish imkonini yaratadi. 1966-yilgacha yerlarni, shu jumladan, ularning maydoni va sifatini faqat ro'yxatga va hisobga olish yo'lga qo'yilgan edi. 2007-yildan boshlab yerni baholash, shu jumladan, tuproq bonitirovkasini aniqlash (tuproq hosildorligini qiyosiy baholash) va yerlarni iqtisodiy baholash (hosildorlik, daromad va xarajatlarni qoplash bo'yicha) ishlari amalga

oshirila boshlandi. Kadastr ma'lumotlaridan asosan, hosildorlikni, mahsulot hajmini, xarid narxlarini muvofiqlashtirish, tuproq hosildorligini oshirishga aloqador ishlarni bajarishda foydalaniladi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, yerga egalik raqobat muhiti bo'lmagan joyda kadastr tushunchasi o'zining asli ma'nosini yo'qotadi. Shuning uchun davlat mulki hukmron bo'lgan davrlarda yer to'lovlari, kredit-garov tizimi, yerning narxini baholash va yer bozori institutlariga amal qilinmas edi.

Yer kadastr hujjatlariga yuzaki yondashish tuproq hosildorligining pasayishiga olib keldi. 1990-yilda o'tkazilgan yer kadastri ma'lumotiga asosan, Respublika bo'yicha o'rtacha ball boniteti 58 bo'lgan bo'lsa, 2000-yilga kelib 55 ni yoki 3 ballga pasayib ketganligi aniqlandi. Sug'oriladigan yerlarning meliorativ holati yomonlashuviga va o'z navbatida tuproq hosildorligini oshirishga zarur darajada e'tibor berilmay qoldi, oqibatda sug'oriladigan yerlarning 67 foizidan ortig'i turli darajada sho'rlandi, qishloq xo'jalik ekinlarining hosildorligi ancha pasayib, 5000 gektar sug'oriladigan yer qishloq xo'jaligida foydalanib bo'lmaydigan darajaga kelib qoldi.

Yer kadastri hujjatlarida tuproqning tarkibi, o'g'it miqdori, eroziya ta'siri, meliorativ holati va boshqa yerdan unumli foydalanishga salbiy ta'sir qiluvchi ma'lumotlar to'liq beriladi. Ammo bu ma'lumotlarga joylarda to'liq rioya qilinmasligi hosildorlikning pasayishiga sabab bo'lib kelmoqda. Masalan, Respublika bo'yicha yiliga 250-300 ming gektar toshloq, gips qatlamli, qattiq sho'rangan va tog' oldi yerlariga ekilgan paxtaning gektaridan 10-18 sentnerdan hosil olinadi. Ayni vaqtda shunday yerlarga mevali daraxtlar, beda, sholi, makkajo'xori ekilsa, yuqori hosil olinishi mumkinligi tajribada sinab ko'rilgan.

Shu bois yer kadastri yuritish faqat qayd qilishgina emas, undagi ma'lumotlarni uzluksiz yangilab turishdan va ulardan foydalangan holda kerakli chora-tadbirlarni belgilash hamda ularni amalga oshirish ustidan nazorat olib borishdan iboratdir.

Ma'lumki, istiqbolda xo'jalikni yanada rivojlantirish sug'oriladigan yerlardan samarali foydalanishni yo'lga qo'yish, xo'jaliklarning barcha ichki zaxiralari hisobiga sug'oriladigan yer maydonini ko'paytirish, ularning meliorativ holatini yaxshilash va tuproqning unumdorligini oshirish, hisobga olinadigan hosilning miqdorini keskin ko'paytirish bilan chambarchas bog'liqdir. Bunga faqat yer kadastri hujjatlaridan to'liq foydalangan holda erishish mumkin.

1.3. "Geografik baholash" mavzusida yer resurslarining qishloq xo'jaligidagi ahamiyatini o'rganish

Bosh qonunimiz – Konstitutsiyaning 55-moddasida «Yer, yer osti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zaxiralar umummilliy boyliklar, undan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidir» deyilgan.

Atrof-muhitni muhofaza qilish bilan bog'liq bo'lgan ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonning asosiy boyligi bo'lgan sug'oriladigan yerlarning holati, sifati va ulardan foydalanish darajasini qoniqarli deb bo'lmaydi. Chunki yerlarning sho'rlanishi natijasida ularning maydoni yildan-yilga ortib bormoqda. Agar 1990-yilda respublika miqyosidagi sug'oriladigan yerlarning 48,2 foizi sho'rlangan bo'lsa, 2000-yilda 64,4 foizga, 2005-yilda 67,4 foizga yetdi. Shundan 36,4 foiz kuchsiz, 18,4 foiz o'rtacha va 12,6 foiz yerlar kuchli sho'rlangan. 292 ming gektar sug'oriladigan yer gipslangan, 157 ming gektar yerga esa shag'al va tosh aralashgan.

Qishloq xo'jaligida foydalaniladigan 26734 ming gektar yerdan suv eroziyasiga uchragani 2700 ming gektarni, shamol eroziyasiga uchragan yer maydonlari 2500 ming gektarni tashkil qiladi. Qishloq xo'jaligida foydalanishga yaroqsiz bo'lgan yer maydoni 84,5 ming gektarni, meliorativ holatini yaxshilashga ajratilgan yer maydoni 79,5 ming gektarni tashkil qiladi.

Agar oxirgi 15 yil ichida 10 ming gektarga yaqin yangi yer o'zlashtirilgan bo'lsa, shu vaqtning o'zida barcha xo'jaliklarning ichki qurilishiga va qishloq xo'jaligidan boshqa maqsadlar

uchun turli qurilishlarga ikki barobardan ortiq sug'oriladigan yer maydonlari ajratib berildi.

Bulardan tashqari, turli qurilishlar jarayonida yaroqsiz bo'lib qolgan yer maydonlarini tiklash (rekultivatsiya qilish) tashqi muhitni muhofazalashda juda katta ahamiyatga ega bo'lsa-da, bu ishga deyarli ahamiyat berilmay kelinmoqda. Buning sababi shundaki, tuproq qidiruv, geologiya qidiruv, yerosti boyliklarini qazib olish, tuproq karrerlarini, yo'l, kanal, gazoprovod, elektrik o'tkazuvchilari qurilishiga ajratib berilgan yerlar ko'p yillar davomida tashlandiq holga kelib, tashqi muhitni ifloslantirmoqda. Vaholanki, bunday yerlar o'rnatilgan tartib bo'yicha qurilishi bitgandan so'ng bir oy ichida tiklanib (rekultivatsiya qilinib) oldingi holatga keltirilgan holda yerdan foydalanuvchiga topshirilishi shart.

Bunday salbiy jarayonlar va ularni bartaraf qilishdagi yo'l qo'yilayotgan ba'zi kamchiliklar natijasida qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yer maydonlari kamayib, ularning unumdorligi pasayib ketishiga va tashqi muhitning ifloslanishiga sabab bo'lmoqda.

Yer kadastri ma'lumotiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi bo'yicha sug'oriladigan yerlarning o'rtacha ball bo'yicha bonititeti 1990-yilda 58 ball bo'lgan bo'lsa, 2000-yilga kelib 55 balga tushib qoldi, masalan, Samarqand viloyati bo'yicha shu davr ichida 10 balga pasaydi.

Ko'plab o'tkazilgan ilmiy-tadqiqot ishlari natijalariga asoslanib sug'oriladigan tuproqlar unumdorligini oshirish va qishloq xo'jalik ekinlaridan yuqori hosil olish uchun quyidagi meliorativ tadbirlarni o'tkazish maqsadga muvofiq bo'ladi:

1. Sug'oriladigan yerlarning deyarli yarmida kollektor tarmoqlarini qayta qurish, ya'ni ularning uzunligini gektariga 40-50 metrga yetkazish, qolgan maydonlarda esa kapital ta'mirlash ishlarini o'tkazish kechiktirib bo'lmaydigan vazifalardan biri hisoblanadi.

2. Bu ishlar amalga oshgunga qadar yerosti sizot suvlarining oqimini ta'minlash va ikkilamchi sho'rlanishning oldini olish maqsadida xo'jaliklararo va xo'jalik ichidagi zovurlarni har yili 45-50 foizini sifatli qilib tozalab turish zarur.

3. Yerosti sizot suvlari sathini ma'lum bir chuqurlikdan (2,5-3,0 m) pastda ushlab turishga qaratilgan barcha tadbirlar majmuasida o'z aksini topishi lozim.

4. Meliorativ tadbirlar ichida tuproq sho'rini yuvish muhim tadbirlardan hisoblanadi. Bu borada haydalib, yaxshi tekislangan maydonlarda olingan cheklarga suv bostirish yo'li bilan tuproq sho'rini yuvish, bu tadbirni o'tkazishdan oldin barcha mavjud zovur tarmoqlarini ishchi holatga keltirib tozalash, tuproqning sho'rlanganlik darajasi, mexanik tarkibi, suv o'tkazuvchanlik xossalarini hisobga olgan holda sho'r yuvish me'yorlarini belgilash muhim ahamiyat kasb etadi.

Bundan tashqari, o'tkazilgan loyiha-qidiruv ishlari natijasi bo'yicha respublikamizda 112,6 ming gektar ixota daraxtzorlari barpo etish, eroziyaga uchragan 170 ming gektar tog' yon bag'irlarida maxsus terrasalarga mevali va manzarali daraxtlar ekish, yirik magistral kanallar, daryolar, suv omborlari, jarliklar qirg'oqlarida 44 ming gektarga yaqin maydonda daraxtzorlar tashkil qilish, 14 ming kilometr yo'llar yoqalab daraxtlar ekish, 301 ta sel suvlarini saqlagichlar qurish, uzunligi 5 ming km bo'lgan daryolar va soylar bo'ylab sohilni mustahkamlash ishlarini bajarish, 3 ming km irrigatsiya shaxobchalarini qayta qurish, eroziyaga qarshi 7,5 ming har xil gidrotexnik inshootlar qurish, 14 ming gektar maydonda yer yuzasini tekislash ishlarini bajarish kerak bo'ladi.

Yer resurslari muhofazasini ta'minlash uchun yer kadastri hujjatlari asosida yerdan faqat belgilangan maqsadda foydalanish, tabiatni muhofaza qilishga oid talablarni o'z vaqtida bajarish, yerning o'zboshimchalik bilan egallab olinishiga va ishlab chiqarish chiqindilari, oqava suvlari bilan ifloslanishiga yo'l qo'ymaslik, yerlarning holatiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan obyektlarni joylashtirmaslik talab etiladi.



CANADA

UNITED KINGDOM

NORTH
PACIFIC
OCEAN

UNITED
STATES

ISLAND OF
NEWFOUNDLAND

NORTH
ATLANTIC
OCEAN

IRELAND

PORTUGAL

SPAIN

BERMUDA

THE BAHAMAS

CUBA

CARIBBEAN SEA

VENEZUELA

COLOMBIA

ECUADOR

BRAZIL

BOLIVIA

PARAGUAY

CHILE

URUGUAY

ARGENTINA

MOROCCO

ALGERIA

SAUDI ARABIA

MAURITANIA

MID ATLANTIC RIDGE

SOUTH
ATLANTIC
OCEAN

SOUTH
PACIFIC
OCEAN

MID ATLANTIC RIDGE

SOUTHERN OCEAN

ISBN 978-9943-08-301-1



9 789943 083011